

O'ZBEK DO'PPILARI SIRLARI**Jo'raxo'jayev Ibroxim Ismoiljon o'g'li**joraxojayevibrohim@gmail.com**Diyorbek Yusufov Sadriddin o'g'li**yusupovdiyorbek49@gmail.com

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute tarix mutaxassisligi talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15133186>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek millatining milliy bosh kiyimi hisoblangan do'ppiar va do'ppi do'zlikning tarixi uning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shartli ravishda do'ppilar bir nechta guruhlarga bo'lingani haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: "Do'ppi" ("tyubeteyka") Taxiya do'ppisi nurka//, andatra malaqay, tumaq, go'zallik, mukammallik, zardo'zi-guldo'zi va zardo'zi-zamindo'zi ("Yulduz", "Tovus") do'ppilari.

СЕКРЕТЫ УЗБЕКСКИХ ТЮБЕТЕЕК

Аннотация. В данной статье рассматривается история тюбетейки, которые считаются национальным головным убором узбекского народа. Статья раскрывает вопросы о разделении национальных головных уборов которые делятся на несколько групп.

Ключевые слова: Шапка" ("тюбетейка") шапка Норка//, андатра малакай, тумак, красота, совершенство, головные уборы зардози-гулдози и зардози-заминдози («Юлдуз», «Павлин»).

SECRETS OF UZBEK SKULLCAPS

Abstract. This article discusses the history and significance of doppiar and doppi do'zlik, which are considered the national headdress of the Uzbek nation. It is said that the skullcaps are conventionally divided into several groups.

Keywords: "Shapka" ("tube") cap Norka//, andatra malakay, tumak, beauty, perfection, headdresses zardozi-guldozi and zardozi-zamindozi ("Yulduz," "Pavlin").

O'zbeklar azaldan o'zlarining boy madaniyati bilan atrofdagilarni hayratga sola bilganlar.

Bu barcha sohada, jumladan xalqimizning pazandalik san'atida, turar joylari jihozlanishida, xalq an'alarida va albatta, liboslarida namoyon bo'lgan. Milliy liboslar va bosh kiyimlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa o'zbek do'ppisini aytmayizmi! Zero, bu shunchaki milliy bosh kiyim emas, bu muqaddas timsol, o'zbek madaniyatining bir bo'lagi, o'z egasi haqida gapira oladigan bosh kiyimidir.

“Do‘ppi” (“tyubeteyka”) so‘zi turkiy “tube” so‘zidan dan olingan bo‘lib, “cho‘qqi” degan ma‘noni anglatadi. Do‘ppini deyarli hamma, yoshu-qari, erkaklar, ayollar, keksalar, qizlar, o‘g‘il bolalar va hatto chaqaloqlar kiyishadi. Faqat keksa ayollargina do‘ppi kiymaydilar.

Xurram Raimovning "O‘zbekim do‘ppisi" she‘rida do‘ppining milliy g‘urur va madaniyatimizdagi o‘rni madh etiladi:

O‘zbekim do‘ppisi

Faxrlidir o‘zbek do‘ppisi,

Turi bisyor, turi xilma-xil.

Ajabtovur bu mo‘jizani,

Yaratadi faqat chevar qo‘l.

Kiydiramiz yangi do‘ppini,

Hosil bayramida dehqonga.

To‘ylarimiz o‘tmagay usiz,

Ulashamiz mehmon, mezbonga.

Marg‘ilon, Chust, Boysun do‘ppisi,

Yurtimizda hamma suyadi.

Xorijlikka kiydirsak uni,

Shu millatga mehr tuyadi.

Go‘zal ekan bosh sarpo bilan

Xalqimizning nomusi, ori.

Do‘ppi kiygan o‘zbek farzandi

Keng ochunda millat g‘ururi.

Bu she‘rda do‘ppining turli xil turlari, uning bayramlar va to‘ylardagi ahamiyati, shuningdek, milliy g‘ururimiz ramzi sifatida tasvirlangan.

O‘zbekistonning har bir hududi o‘ziga xos do‘ppisi bilan ajralib turadi. Do‘ppilar qadimdan eron va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Shartli ravishda do‘ppilar bir nechta guruhlariga bo‘linadi. O‘zbekistonda Chust, Andijon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur. O‘zbekistonning eng mashhur do‘ppisi to‘rt qirrali Chust do‘ppilaridir. Uning tomonlari egasini borliqning to‘rt asosiy nuqtasidagi yovuz kuchlardan himoya qiladi. Qora rang fazoni va qorong‘ilikni anglatadi, bezakda odatda oq iplardan foydalanilgan. Libosning 4 tomonidagi “qalampir” hayotni, oilaviy farovonlikni anglatadi va yomon ko‘zdan himoya qiladi.

Do'ppining pastki qismida keltirilgan 16 arka hayot va o'lim davomiyligidir. Shakl berish orqali ular boylik va hayotiy energiya ta'minotini jalb qiladilar. Arkadagi qo'zichoq shoxlari kuch va jasoratni anglatadi.

Toshkentning duxoba do'ppisi sidirg'a baxmaldan, buxoro do'ppisi sidirg'a yoki gul-li baxmaldan tayyorlanadi; buxoro do'ppisiga rang-barang ipak iplarda yo'rma usulida kashta tikib bezatilgan jiyak tutiladi.

Samarqandning Urgut do'ppilari barcha davrlarda o'ziga xosligi bilan ajralib turgan.

Samarqandda qora satinga tikilgan tepasi baland, gumbazsimon, kizagi keng, to'q rangli matodan jiyak tikiladigan do'ppilarni erkaklar sevib kiyganlar. XX asrning boshlaridan ko'rinishi dumaloq, Buxoro zardo'zlarining zardo'zi-guldo'zi va zardo'zi-zamindo'zi ("Yulduz", "Tovus") do'ppilari badiiy jihatdan yuqori baholanadi. Buxoro zardo'zi do'ppilari ayniqsa juda mashhur. Ularni tayyorlashda faqat turli rangdagi silliq baxmaldan foydalaniladi. Kashta tikishda Buxoro kashtado'zlari asosan islimiy naqshlardan foydalanadilar: bodom, turunj (noranja), to'pbarggul, palmetta hamda aylana, romb va boshqa handasaviy shakllar. Ko'k, kulrang va to'q qizil ranglarning nafis birikmasi Buxoro kashtalariga o'ziga xos naqshinkorlik bag'ishlaydi.

Iroqi do'ppi Shahrisabzda keng urf bo'lgan, keyinchalik boshqa joylarga tarqalib, har bir mahalliy joyning o'ziga xos bezak usulida yaratila boshlandi. do'ppining bu turida kashta iplari sug'irilib to'r holiga keltirilgan mato (surp)ga rangli ipak yoki ingichka tolali paxta ipi bilan iroqi chok(terma va bosma usuli)da tikiladi (nomi shundan). Iroqi do'ppining eng yaxshi namunalari Shahrisabz va Kitob do'ppido'zlari tomonidan tayyorlanadi.

Surxondaryo viloyatining ko'plab hududlarida piltado'zi do'ppilari tikilgan. Bu do'ppilardagi to'pgul naqshlar odatda uchi o'tkir nurli yulduz ko'rinishida bo'lgan. Aylana shaklli Shahrisabz gilam do'ppilari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Boysun do'ppilari badiiy jihatdan ayniqsa qiziqarli. Yirik, bir qancha g'adir-budir naqshlar, yorqin, bo'rtma ranglar birikmasi Boysun do'ppilariga o'ziga xos joziba baxsh etadi. Shimoliy vazminlik va hashamdor janubiy ishtiyoqmandlikning o'ziga xos birikmasi, naqshlar va shakllardagi yorqinlik tayxa, taxya, chumakli taxya, qush kabi Xorazm bosh kiyimlarida o'z aksini topgan. Takiya, to'qima takiya, makal takiya kabi qoraqalpoq do'ppilari gumbazsimon shaklga ega va keng gardishli.

Qoraqalpog'iston hududi o'zbek shevalarida qo'llaniladigan bosh kiyim nomlariga quyidagilarni kiritish mumkin: Taqya//taxya, toppi, nurka//, andatra malaqay, tumaq qalpaq. O'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida bosh kiyim guruhiga kiruvchi kiyimlarni ikki guruhga ajratib o'rganish mumkin:

1. Boshga kiyiladigan kiyimlar:

taqya, toppi, malaqay, tumaq, qalpaq, telpak; chögirma, papax kabi.

2. Boshga o'raladigan kiyimlar: oramal, oripak, kasinka, lachak, sharf,

yag'liq//javliq kabi.

1. Boshga kiyiladigan kiyim turlari birini o'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida taqya//taxya deb nomlashadi O'zbek tilining izohli lug'atida taqya bosh kiyimi quyidagicha ta'riflangan:

taqya – [arabcha so'z ehtiyotkorlik, yashirish, bekitish] sidirg'a matodan tayyorlangan gulsiz do'ppi . Shuningdek, o'rganilayotgan hudud o'zbek shevalarida chögirma bosh kiyimi nomi ham keng qo'llaniladi. O'zbek tilining izohli lug'atida chögirma – Xorazm va Qoraqalpog'istonda rasm bo'lgan katta mo'yna qalpoq tarzida izohlangan. Taxiya do'ppisi qoraqalpoqlarning an'anaviy bosh kiyimlaridan biri bo'lgan.

Qoraqalpoq do'ppilar qubba shaklida bo'lib, balandligi 12 santimetrni tashkil qilgan.

Ularning tepa qismi to'rt qismdan iborat, mayda bostirib qavilgan. Gardishi boshqa matodan tayyorlanib, jiyek tikilgan va unga shoyi popuk taqilgan. Tepa qismi yassi va keng gardishli do'ppilar ham keng tarqalgan edi. Nuroniy otaxonlar kurash ostidan do'ppi kiygan. Xonaki matolardan tikilgan do'ppilar toqima taxiya, baxmaldan tayyorlangani esa maxpal taxiya, deb nomlangan. Ba'zan do'ppilar an'anaviy keste taxiya kashtasi bilan bezatilgan. Kashtaning ushbu turi dasht aholisiga xos edi, yoshlar ko'k va yashil, qariyalar va bolalar oq do'ppi kiygan. Bolalar va o'smirlar do'ppisi kashta bilan bezatilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston tarixi Davlat Muzeyi fondida 300 ga yaqin do'ppi bor.

"Do'ppi tikdim... ipaklari tillodan", – deb kuylanadi mashhur o'zbek qo'shig'ida.

Tajribali usta kashtachilarning qo'llari bilan haqiqiy san'at asarlari yaratiladi.

O'zbekistonda do'ppi nafaqat kiyimning bir jihati, balki xalq madaniyatining tarkibiy qismidir.

Bugungi kunda shaharliklarning boshida do'ppini faqat ayrim holatlarda: oilaviy tantanalar, dafn marosimlari yoki bayramlarda ko'rish mumkin. Ammo bundan bir necha o'n yillar oldin do'ppi O'rta Osiyoda asosiy bosh kiyim turi bo'lgan. Uni erkaklar va ayollar, bolalar va qariyalar kiyardi. Va har bir mintaqada do'ppilar o'ziga xos farqli jihatlarga ega bo'lgan.

Hozirgacha xalq orasida do'ppilar haqidagi afsonalar va rivoyatlar saqlab kelinadi. Uzbek rivoyatlarga ko'ra, erkaklar do'ppisining yuqori qismidagi to'rtta gul odamning sog'lig'ini to'rt tomondan himoya qiladi, do'ppi chetidagi o'n oltita gul esa katta va ahil oila bo'lish (o'n oltita farzand ko'rish) tilagini bildiradi. Ushbu do'ppilar odmi, kamtar va shu bilan birga juda bezakli ko'rinishga ega. Ular to'rtta qalampir boshchalari ko'rinishidagi oq naqshning qora fon bilan keskin birikuvi bilan ajralib turadi. Qorong'i fonga oq ipak bilan tikilgan gullar inson qalbi va yuragi pokligining ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Ayollar do'ppilarini bezashda asosan gullar, mevalar va qushlardan foydalaniladi.

Gul naqshlari orasida keng tarqalgani atirgul, gulsapsar, chinnigul, lola, gultojixo'roz, olma gullari va boshqalar, mevalar orasida esa anor, olcha va gilos, bodom va qalampir tasvirlari va boshqalar hisoblanadi. Gullar ko'pincha yuqorida va yon tomonda tasvirlanadi. Gullar ichidagi jihatlar, ayniqsa, ehtiyotkorlik bilan ishlanadi. Qushlar ham bezakning asosiy naqshini tashkil qilishi mumkin. Asosan, bu tustovuq, xo'roz, bulbulning tasvirlaridir. Hunarmand ayollarning go'zallikka, mukammallikka intilishi ularning mehnatini hunarmandchilikdan eng yuqori san'at darajasigacha ko'taradi.

O'zbekiston poytaxti milliy madaniyatni faol ravishda ommalashtirishni rejalashtirmoqda. Toshkent shahar hokimi poytaxtda milliy an'analarni targ'ib qilish bo'yicha "Milliy Toshkent" loyihasini amalga oshirish to'g'risidagi qarorni imzoladi. Bunda poytaxtdagi avtobuslar, bozorlar va xiyobonlarni milliy bezaklar bilan bezatish, davlat idoralari xodimlariga milliy liboslar kiyishni tavsiya etish va boshqalar ko'zda tutilgan.

Mazkur qaror Toshkent shahar hokimi Shavkat Umurzoqovning 2025 yil 21 yanvardagi qarorida mustahkamlangan. Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, shahar aholisining estetik idrokini rivojlantirish, o'zbek xalqining boy madaniy merosiga e'tiborni qaratishdan iborat.

Milliy libos va milliy do'ppi kiygan fuqarolarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish asosiy choralardan biri bo'ladi.

"Milliy libos va do'ppilar kuni" deb e'lon qilingan juma kuni davlat idoralari xodimlariga an'anaviy liboslar va milliy do'ppilar kiyish tavsiya etiladi.

Faqat tasdiqlangan xizmat formasi bundan mustasno bo'ladi.

Xodimlarga qulaylik yaratish maqsadida ularga milliy liboslarni bemaolol kiyishlari uchun alohida sharoitlar yaratiladi. Shahar dasturi doirasida barcha ommaviy tadbirlar milliy uslubda tashkil etiladi va ishtirokchilar an'anaviy liboslarda bo'lishi shart.

Xulosa. Shunday qilib, o'zbek do'ppisi bezagining barcha elementlari — rangi, chiziqlari, rasmlari muhim ma'no yuklamasiga ega bo'lib, ko'pincha hayot va o'lim, yorug'lik va qorong'ulik, yer va osmon, yaxshilik va yomonlik kabi umumiy tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi. O'zbek do'ppisi, nafaqat milliy kiyim-kechak sifatida, balki O'zbekistonning madaniyati va an'alarida muhim o'rin tutadi. Uning tarixi chuqur, va har bir do'ppi o'ziga xos ma'no va ramzlarga ega. Do'ppining shakli va naqshlari, kiygan kishining ijtimoiy mavqei, yoshiga va hatto hududiga qarab o'zgaradi. Xulosa qilib aytganda, O'zbek do'ppisi — bu milliy merosning ajralmas qismi bo'lib, har bir detalida chuqur ma'no, an'ana va tarixni o'zida mujassamlashtiradi.

Do'ppini kiyish, nafaqat madaniyatni saqlash, balki o'ziga xos milliylikni ifoda etishdir.

REFERENCES

1. Kamoliddin Sh. O'zbek do'ppisi tarixidan. Moziydan sado. Toshkent.: 2017.
2. Sodiqova N, G'aybullayeva Y. O'zbek milliy bosh kiyimlari XIX-XX asrlar. Toshkent. 2014.
3. G'aybullayeva Y. Do'pillar tarixidan. T.: Moziydan sado. 2010.
4. Ishaev A. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1977.
5. Ikromova F. Boshimda tursa O'zbekim do'ppisi // INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. 2022
6. Тухбиева Л.Ф. Лексика одежды и головных уборов татарском
7. литературном языке. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Казань, 2006. – 38
8. Копуцу В. Названия традиционных головных уборов в турецком и
9. гагаузском языках. Комрат, 2014.
10. Кузина Г.В. Лексика одежды: названия головных уборов в орловскиз
11. говоров (структурно-семантический аспект). Дисс. канд. филол. наук. – Тува.